

*Atajonov M.M.
Andijon davlat universiteti
geografiya kafedrasi dotsenti
Baratova N.X.
Andijon davlat universiteti
2-bosqich magistranti*

ANDIJON VILOYATIDA SANOATNING HUDUDIIY TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada Andijon viloyatida sanoat tarmoqlari hududiy tashkil etilishi hamda rivojlanishining hududiy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: sanoat, ishlab chiqarish, hududiy tarkib, mashinasozlik, avtomobilsozlik, modernizatsiya, ixtisoslashuv, kooperatsiya, mahalliy lashtirish, qoʻshma korxonalar.

*Atajonov M.M.
Associate Professor, Department of Geography,
Andijan State University
Baratova N.X.
2nd level master's student
Andijan State University*

REGIONAL ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF INDUSTRY IN ANDIJAN REGION

Abstract: this article analyzes the territorial aspects of the territorial organization and development of industrial sectors in the Andijan region.

Keywords: industry, production, territorial structure, mechanical engineering, automotive industry, modernization, specialization, cooperation, localization, joint ventures.

Kirish. Andijon viloyati sanoati mamlakatning boshqa hududlari kabi mustaqillik yillarida oʻziga xos xususiyat kasb etib, yangi zamonaviy texnologiya va texnikalar asosida jadallik bilan rivojlanib borayotgan xoʻjalikning asosiy tarmogʻi hisoblanadi. Viloyatning sanoatiga nazar tashlansa, unda elektroenergetika, yoqilgʻi, mashinasozlik, metalni qayta ishlash va

avtomobilsozlik, kimyo, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlari rivojlangan.

Asosiy qism. Ma'lumotlar ko'rsatadiki, 2024 yilda viloyat korxonalari tomonidan 90627,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023 - yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,3 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,1 foiz)ni tashkil etdi.

Mashinasozlik, metalni qayta ishlash va avtomobilsozlik sanoati tarmog'ining asosini Asaka yengil avtomobil ishlab chiqarishi tashkil qilib, uning hissasiga shu tarmoq ishlab chiqarishining 94 foiz dan ko'prog'i to'g'ri keladi. 2024 yilda 265303 dona yengil avtomobillari ishlab chiqarildi.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoat tarmog'ining 60 foiz dan ortig'i Andijon shahriga, qolgan qismlari Qo'rg'ontepa, Xonobod shahriga, Jalaquduq, Xo'jaobod, Buloqboshi, Shahrixon tumanlariga qisman Marhamat, Izboskan, Paxtaobod, Baliqchi tumanlarida rivojlangan.

Viloyat sanoat ishlab chiqarishida yengil sanoat muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo'lib, uning tarkibiga paxta tozalash, ip yigiruv, to'qimachilik, matolarni bo'yash, tikuvchilik, charm-teriga ishlov berish, poyabzal, charm-galanteriya mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari yaxshi rivojlangan. Bu sohaning rivojlanishida xususiy tadbirkorlik, nodavlat ishlab chiqarish korxonalari, kichik biznes sub'yektlarining ahamiyati katta.

Viloyat sanoatida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, kiritilayotgan investitsiyalar, yangi texnologiya va zamonaviy ishlab chiqarish vositalari sohani rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi, mahsulot turlarini ko'paytirish va ishlab chiqarishning quvvatini


oshirish natijasida 2024 yilda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 51 506,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023 yilga nisbatan 100,7 foizga ortgan.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning viloyatdagi ulushi eng yuqori bo'lgan ko'rsatkich Asaka tumaniga to'g'ri kelib u 70,1 foizni tashkil qilgan holda Andijon shahri 4,8 foizni, Andijon tumani 2,1 foizni, Oltinko'l tumani 5,9 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari bo'yicha viloyat o'sish sur'atidan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar Izboskan 178,8 foiz, Andijon 178,2 foiz, Jalaquduq 193,5 foiz, Oltinko'l 186,3 foiz, hamda Xonobod shahri 147,2 foiz ko'rsatkichlarga erishgan.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha tumanlar kesimida Asaka 146,5 foiz, Oltinko'l 123,3 foiz, Xo'jaobod 111,1 foiz, Marhamat 127,3 foiz, Andijon shahrida 110,9 foizga erishilgan. Albatta, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oldingi yillarga nisbatan o'sgan.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 54,4 foizni) hamda Andijon shahri (14,9 foiz), Xonobod shahri (5,0 foiz), Baliqchi (3,0 foiz), Qo'rg'ontepa (3,5 foiz) va Xo'jaobod (4,1 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




Eng past ko'rsatkich esa Buloqboshi (0,7 foiz), Bo'ston (0,8 foiz) hamda Ulug'nor (1,0 foiz) tumanlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur tumanlarning bunday ko'rsatkichga ega bo'lishining asosiy sabablari tumanlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalarining rivojlanmaganligi, ishlab chiqarishga fan-texnika taraqqiyotini, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini jalb qilmaslik, malakali kadrlarning hududlarda yetishmasligi kabi omillar ta'sir qiladi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (124994,5 ming so'm), Xonobod shahar (69 336,8 ming so'm) va Andijon shahrida (26958,7 ming so'm) tuman va shaharlarda o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (26 440,0 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 12 418,6 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida 83 251,3 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida 20 685,2 ming so'mni, Andijon shahrida 4 206,4 ming so'mni tashkil etadi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to'g'ri kelib, 70,1 foizni, shuningdek, Andijon shahariga 4,8 foizni, Paxtaobod tumani 1,6 foizni, Xo'jaobod tumanida 5,9 foizni hamda Baliqchi tumani 2,4 foizni tashkil etadi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat (143,1 foiz) ga ko'paygan. Yuqori darajada o'sish ko'rsatkichi Asaka (147,2 foiz), Marhamat (125,0 foiz), Paxtaobod (144,5 foiz), Jalaquduq (193,5 foiz), Baliqchi (178,2 foiz), tumanlarida hamda Izboskan tumanida (178,8 foiz) ga to'g'ri keladi.



2-rasm.

Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, foiz da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 54,4 foizni) hamda Andijon shahri (14,9 foiz), Xonobod shahri (5,0 foiz), Baliqchi (3,0 foiz), Qo'rg'ontepa (3,5 foiz) va Xo'jaobod (4,1 foiz) shahar va tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa Bulqoboshi (0,7 foiz), Bo'ston (0,8 foiz) hamda Ulug'nor (1,0 foiz) tumanlariga to'g'ri kelmoqda. 2024 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 27 085,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,9 foiz ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng

yuqori ulushi Bulqoboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 foiz), Oltinko'1 (80,3 foiz), Jalaquduq (46,3 foiz), Shahrixon (80,8 foiz), hamda Andijon (76,5 foiz) tumanlarida kuzatildi. Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes

subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka tumani (2,6 foiz), Xonobod shahar (42,8 foiz) va Andijon shahrida (22,2 foiz) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi

bilan izohlash mumkin.



3-rasm. Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi

Andijon viloyatda 4355 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1207 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 27,7 foizi) Andijon shahriga, 506 tasi (11,6 foiz) Andijon tumaniga, 355 tasi (8,1 foiz) Asaka

tumaniga, 314 tasi (7,2 foiz) Shahrixon tumaniga, 261 tasi (5,9 foiz) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri keladi.

2024 yilda viloyatda 904 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 136 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 15,0 foiz) Andijon shahrida, 57 tasi (6,3 foiz) Asaka tumanida, 50 tasi (5,5 foiz) Shahrixon tumanida, 63 tasi (6,9 foiz) Baliqchi tumanida, 94 tasi (10,3 foiz) Andijon tumanida tashkil etildi.

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Asaka (355 ta), Andijon (506 ta), Shahrixon (314 ta), Xo'jaobod (261 ta) tumanlari hamda Andijon shahri (1207 ta) hisoblanadi.

2024 yil holatiga ko'ra viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar sirasiga Jalaquduq (182 ta), Buloqboshi (154 ta), Marhamat (165 ta), Paxtaobod (124 ta), Bo'ston (125 ta) va Ulug'nor tumanlari (85ta) hamda Xonobod shahri (80 ta) kiradi.

Xulosa. Shunday qilib, Andijon viloyati sanoatining rivojlanishi, istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda va bu borada tub sifat o'zgarishlarini amalga oshirishda qo'shma va xususiy korxonalar muhim o'rin tutadi. Qo'shma korxonalar barpo etish, chet el investitsiyalarini iqtisodiyotga jalb etishda quyidagi xususiyatlarni e'tiborga olish muhim:

- demografik vaziyatning o'zgarishi, ya'ni tabiiy ko'payish va migratsion harakatlar ortib borayotganligi;
- tabiiy resurslar va ulardan ishlab chiqarishda foydalanish darajasi;
- aholi ehtiyojini qondirish hamda ijtimoiy-ekologik muammolarni bartaraf etish;
- zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish;
- ichki va tashqi bozordagi mavqeini oshirish;
- milliy iqtisodiyot majmuasini intensiv yo'ldan kompleks rivojlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Bu xususiyatlar Andijon viloyatida sanoat korxonalarining rivojlanishiga qaratilgan prognozlashni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shuningdek, uzoq va yaqin muddatlarga mo'ljallangan sanoat korxonalarini rivojlantirish ko'rsatkichlarini belgilash, iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar milliy iqtisodiyot majmuasining moddiy-texnika bazasini qayta qurish, iqtisodiyot tarmoqlarining samarali tarkibini va boshqarishni zamonaviy shakllarini yaratish mana shunday muhim tadbirlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqtisodiy (tarmoqlari va sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari''TOSHKENT...2023.
2. Iqtisodiy o'sish'' M.A. Mamatov. Toshkent-2021.
3. Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон худудлари ижтимоийиқтисодий ривожланиши. – Т.: «MUMTOZ SO'Z», 2010.
4. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт.- Т.: Камалак, 2013.
5. 5.О'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. P.Musayev. J. Musayev.Toshkent-2019.
6. Rabiёv B. О 'ZBEKSTONDA AYOLLAR "UY XIZMATI" NI RIVOJLANISHI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 1. – С. 49-53.
7. Jo'rayev Sh.S. O'zbekistonda sanoatni barqaror rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari. – T., 2016. – 144 b.
8. 2. Soliyev A.S. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.-T.:2007
9. 3. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy holati (Sanoat) //Statistik axborotnoma. – T., 2024.
10. Rabiёv, B. (2024). SOCIO-ECONOMIC ASPECTS OF WOMEN'S DOMESTIC SERVICE MIGRATION. *Академические исследования в современной науке*, 3(32), 30-35.
- 11.5. <https://stat.uz/> Ўзбекистон республикаси Статистика агентлиги расмий сайти
12. <https://andstat.uz/> Ўзбекистон республикаси Андижон вилояти Статистика бошқармаси расмий сайти
13. "Statistical bulletin of Fergana region". Fergana Regional Statistics Department. Fergana. January 28, 2020
14. "Tourism and economic Statistics of the Fergana Regional Prosecutor's Office." Fergana. 2019